**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI**
**DSc.03/11.07.2025.B/Qx.01.17 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**MASHARIPOV NORBEK KENJABAYEVICH**

# MIRZACHO‘L VOHASIDAGI BO‘Z YERLAR VA SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARNING EKOLOGIK-MELIORATIV HOLATI VA BIOGEOKIMYOSI (XOVOS VA OQOLTIN TUMANLARI MISOLIDA)

**03.00.13 – Tuproqshunoslik**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**UO‘T. 631.416.8.9:550.47**

## Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

## Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам

## Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on biological sciences

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/11.07.2025.B/Qx.01.17 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**MASHARIPOV NORBEK KENJABAYEVICH**

# MIRZACHO‘L VOHASIDAGI BO‘Z YERLAR VA SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARNING EKOLOGIK-MELIORATIV HOLATI VA BIOGEOKIMYOSI (XOVOS VA OQOLTIN TUMANLARI MISOLIDA)

**03.00.13 – Tuproqshunoslik**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/B279 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash veb-sahifasida (nauka@.nuu.uz.) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Parpiyev G‘ofurjon Toxirovich**<br>biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Turdaliyev Avazbek Turdaliyevich**<br>biologiya fanlari doktori, professor |
| | **Ismonov Abduvahob Jo‘rayevich**<br>biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Samarqand davlat universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/11.07.2025.B/Qx.01.17 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “26” noyabr soat $10^{00}$ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100179, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko‘chasi, 4-uy, O‘zbekiston Milliy universitetining Biologiya va ekologiya fakulteti binosi, 2-qavat 203-xona. Tel.: (+99871) 246-67-72 (e-mail: nauka@.nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (181-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100179, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-67-72.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “12” noyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil “11” noyabrdagi № 5-raqamli reyestr bayonnomasi).

**Z.A.Jabbarov**
Ilmiy daraja beruvch ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

**D.Yu.Maxkamova**
Ilmiy daraja beruvch ilmiy kengash kotibi, b.f.f.d., dotsent

**G.M.Nabiyeva**
Ilmiy daraja beruvch ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., dotsent

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda “dunyoda turli xil degradatsiya jarayonlari ta’sirida har yili 100 million gektar atrofida sog‘lom va unumdor yerlar yo‘qotilmoqda. Degradatsiyaga uchragan maydonlar 2000-yildan 2019-yilgacha Sharqiy Osiyo, Lotin Amerikasi, Karib havzasi va Markaziy Osiyoda umumiy yer maydonining kamida 20% i, boshqa mintaqalarda esa 10% dan oshgan”[1]. Shu sababli, bo‘z yerlar va sug‘oriladigan sharoitida “tuproq – tabiiy va madaniy o‘simliklar” tizimida kimyoviy elementlar tarkibi, miqdori va xususiyatlarini aniqlash, tuproqlarning ekologik-meliorativ holatini baholash va biogeokimyoviy jarayonlarni tadqiq etish orqali tuproq unumdorligini saqlash va oshirish muhim ahamiyatga ega.

Dunyoda tabiiy va antropogen omillar ta’siridagi qurg‘oqchil hamda yarimqurg‘oqchil mintaqalarida tarqalgan yangi o‘zlashtirilgan yerlar, bo‘z yerlar va sug‘orma dehqochilikka jalb qilingan tuproqlar ekologik-meliorativ holati, shuningdek “tuproq-o‘simlik” tizimida kechayotgan jarayonlarini o‘rganishga bag‘ishlangan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada bo‘z yerlar, sug‘oriladigan tuproqlarda hamda tabiiy va madaniy o‘simliklarda kimyoviy elementlarning migratsiyasi, akkumulyatsiyasini, biogeokimyoviy baryer va provinsiyalar shakllanishidagi rolini aniqlash, tuproq unumdorligini baholash va oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz bo‘z mintaqasi tuproqlari xossa-xususiyatlarini o‘rganish, geokimyoviy va biogeokimyoviy jarayonlar yo‘nalishini aniqlash, ekologik meliorativ holatini yaxshilash, tuproq unumdorligini saqlash, oshirish va ulardan samarali foydalanishga oid ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda va muayyan natijalarga erishilmoqda. Xususan, 2022-2026-yillarga mo‘ljalllangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida “Yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o‘zlashtirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish” muhim ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Shu bois, respublikamizda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda yer resurslardan oqilona va samarali foydalanish oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 2-fevraldagi “Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida”gi O‘RQ-903-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi “Yerlar degradasiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 277-son, 2024-yil 13-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-71-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

[1]https://www.fao.org/sustainable-development-goals-data-portal/data/indicators/1531-proportion-of-land-that-is-degraded-over-total-land-area/ru

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoni o‘rganilganlik darajasi.** Turli mintaqa yerlarining o‘zlashtirilishi, sug‘orishlar ta’sirida tuproqlarning morfogenetik, geokimyoviy, biogeokimyoviy xususiyatlari, tuproqlar unumdorligi va meliorativ holatidagi o‘zgarishlar, tuproqlardan samarali foydalanish borasida xorij va mamlakatimiz olimlaridan V.I.Vernadskiy, A.E.Fersman, V.M.Goldschmidt, A.Kabata-Pendias, V.V.Dobrovolskiy, V.A.Kovda, Yu.A.Azarenko, A.N.Rozanov, M.A.Pankov, R.Q.Qo‘ziyev, G‘.Yuldashev, M.M.Toshqo‘ziyev, V.Yu.Isaqov, X.H.Tursunov, L.A.Gafurova, R.Qurvantoyev, A.U.Axmedov, N.Yu.Abduraxmonov, M.T.Isag‘aliyev, A.T.Turdaliyev, Z.A.Jabbarov, G‘.T.Parpiyev, O‘.T.Sobitov, U.B.Mirzayev, B.T.Jobborov, D.Y.Darmonov, X.A.Abduxakimova, M.V.Obidov, I.I.Musayev va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. Bajarilgan ishlarda, element va moddalarning migratsiya jarayonini ko‘rsatuvchi kartogrammalar tuzish uslubiyati M.A.Glazovskaya, A.I.Perelman kabilar ishlarida yoritilgan, lekin Mirzacho‘l vohasidagi bo‘z yerlar va sug‘oriladigan tuproqlarning ekologik-meliorativ holati, unumdorligi makro-, mikro- va toksik elementlar tarkibi hamda miqdori, ularning biogeokimyoviy xususiyatlari, “tuproq – tabiiy va madaniy o‘simliklar” tizimi o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlash va ulardan samarali foydalanishga qaratilgan tadqiqotlarga yetarlicha ahamiyat berilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotlarining bajarilgan oliy ta’lim muassasaning imliy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universitetining “Tuproqlarning degradatsiyasi, ularning unumdorligi, muhofazasi va yaxshilashning innovatsion texnologiyalari” mavzusidagi (2021-2025 yy.) ilmiy-tadqiqot rejasiga bog‘liq holda bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Mirzacho‘l vohasidagi bo‘z yerlar, sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z, bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlarning ekologik-meliorativ holati va unumdorligini tabiiy va antropogen omillar ta’sirida o‘zgarishini aniqlash, “tuproq – tabiiy va madaniy o‘simliklar” tizimida biogeokimyoviy xususiyatlarini hamda yerlardan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Mirzacho‘l vohasida (Sirdaryo viloyati Xovos va Oqoltin tumanlari hududida) tarqalgan bo‘z yerlar, sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z, bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlarining morfogenetik xususiyatlarini tabiiy va antropogen omillar ta’sirida o‘zgarishini aniqlash;

bo‘z yerlar, sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z, bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlarining umumfizikaviy, agrokimyoviy, fizik-kimyoviy va kimyoviy xossalarini aniqlash;

bo‘z yerlar va sug‘oriladigan tuproqlarini 0-1 metrlik qatlamidagi umumiy tuzlar va zaharli tuzlar zahiralari (t/ga) asosida tuproq ekologik-meliorativ holatini baholash;

“tuproq – tabiiy va madaniy o‘simliklar” tizimida kimyoviy elementlar miqdori, sifati, konsentratsiya klarki, biologik singdirish koeffitsiyenti, geokimyoviy intensivligi, biogeokimyoviy provinsiyalarini hamda o‘zaro korrelyatsiyasini aniqlash;

bo‘z yerlar va sug‘orma dehqonchilik sharoitidagi o‘tloqi-bo‘z, bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlar geokimyoviy va biogeokimyoviy xususiyatlarini hisobga olgan holda unumdorligini saqlash va oshirish hamda 1:10000 masshtabli “Agroekologik kartogrammasi”ni tuzish va ekinlardan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Mirzacho‘lning yangidan o‘zlashtirilgan hududi, ma’muriy jihatdan Sirdaryo viloyati Xovos va Oqoltin tumanlari hududidagi avtomorf, yarimgidromorf va gidromorf sharoitdagi bo‘z yerlar, o‘tloqi-bo‘z, bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘z yerlar, sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z, bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlarning morfogenetik xususiyatlari, makro- va mikroelementlar tarkibi, miqdori, migratsiyasi, akkumulyatsiyasi, tuproq ekologik-meliorativ holati, o‘simliklarning (tabiiy o‘simliklardan: oqbosh *(Karelinia caspia (Pall.) Less.)*, yulg‘un *(Tamarix)*, amurdaryo tuyatovoni *(Zygophyllum oxianum Boriss.)* va pahmoq xardandon *(Halimocnemis villosa Kar. & Kir.)*, madaniy o‘simliklardan: g‘o‘za *(Gossipium hirsutum L.)*, bug‘doy *(Triticum durum Desf.)* va qovun *(Melobilobola L.)* element tarkibi, biogeokimyoviy xususiyatlari hamda 1:10 000 masshtabli tuproq sho‘rlanganligi, zaharli tuzlar zahiralari, agroekologik kartogrammalar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlar umumqabul qilingan morfogenetik, solishtirma-geografik va pedogeokimyoviy usullar asosida bajarilgan, jumladan, kimyoviy tahlillar “Руководство к проведению химических и агрофизических анализов почв при мониторинге земель” qo‘llanmasi hamda “Sug‘oriladigan yerlarda xaritalashtirish ishlarini o‘tkazish, sho‘rlangan tuproqlarni hisobga olish va sho‘r yuvish me’yorlarini aniqlash” asosida amalga oshirilgan, matematik-statistik tahlillar Microsoft Exel dasturi yordamida hisoblangan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Mirzacho‘l vohasi (Sirdaryo viloyati Xovos va Oqoltin tumanlari) hududida tabiiy va antropogen omillar ta’sirida bo‘z yerlar → sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z → sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi → sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar tomon ekologik-meliorativ holatida progressiv evolyutsiya jarayoni vujudga kelganligi ilmiy asoslangan;

Sirdaryo viloyati Xovos va Oqoltin tumanidagi bo‘z yerlar hamda sug‘oriladigan hududlarida “tuproq – tabiiy va madaniy o‘simliklar” tizimida siklik elementlardan Fe, Ca, Na, K, Mo, Mn, Ba, Sr, Cr, Zn, Ni, Co, Mg, Al, B, P, Cu, Pb, As, W va tarqoq elementlardan Rb, Cs, Ga, Li larning miqdori, sifati, konsentratsiya klarki, biologik singdirish koeffitsiyentlari, biogeokimyoviy intensivligi va provinsiyalari aniqlangan;

Mn, Zn, Ni, Co, Cu va Pb elementlarining bo‘z yerlar, sug‘oriladigan tuproqlardagi miqdori bilan tabiiy va madaniy o‘simliklar organlari o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatsiyasi “kuchsiz ijobiy” ($r = 0,1$-$0,3$), “o‘rtacha” ($r = 0,4$-$0,6$) va “kuchli ijobiy” ($r = 0,7$-$1,0$) ekanligi aniqlangan;

bo‘z yerlarga nisbatan sug‘oriladigan tuproqlarda gidromorfizm jarayonlariga bog‘liq holda radial differensiatsiya koeffitsiyenti “past holatda” (Kr = <1,0) ekanligi isbotlangan;

bo‘z yerlar va sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z, bo‘z-o‘tloqi hamda o‘tloqi tuproqlar ekologik-meliorativ holati baholangan, “ekologik jihatdan holati yaxshi” hududlar ekanligi ilmiy asoslangan hamda “Tuproq sho‘rlanganlik”, “Tuproqlarni zaharli tuzlar zahiralari bilan baholash” va “Agroekologik kartogramma”lari asosida hududda tabiiy o‘simliklarni asrab-avaylash, qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish va foydalanishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi bo‘z yerlar va sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z tuproqlar, Oqoltin tumanidagi sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlar 1:10 000 masshtabli jami 230,37 gektar maydonga “Tuproq sho‘rlanganlik”, “Tuproqlarni zaharli tuzlar zahiralari bilan baholash” va “Agroekologik kartogramma”lari tuzilgan;

bo‘z yerlar va sug‘orma dehqonchilik sharoitidagi o‘tloqi-bo‘z, bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlarning ekologik-meliorativ holatlarini yaxshilash, tuproq unumdorligini oshirish va tabiiy o‘simliklarni asrab-avaylash hamda madaniy o‘simliklarni joylashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyanoma ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot maqsadida qo‘yilgan vazifalarga kompleks yondashilganligi, nazariy va amaliy natijalarni bir-biriga mosligi, tadqiqotlar meliorativ tuproqshunoslik va tuproq biogeokimyosi sohasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda bajarilganligi, olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilinganligi, dunyo miqyosida keng qo‘llanilayotgan uslublardan foydalanilganligi, tadqiqot natijalarining yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi va amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, Mirzacho‘l vohasi (Sirdaryo viloyati Xovos va Oqoltin tumanlari) hududida tabiiy va antropogen omillar ta’sirida bo‘z yerlar → sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z → sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi → sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar tomon ekologik-meliorativ holatida progressiv evolyutsiya jarayoni vujudga kelganligi ilmiy asoslanganligi, “tuproq – tabiiy va madaniy o‘simliklar” tizimida, siklik va tarqoq elementlarlarning miqdori, sifati, konsentratsiya klarki, biologik singdirish koeffitsiyentlari, biogeokimyoviy intensivligi va provinsiyalari aniqlanganligi, biomikroelementlar (Cu, Co, Ni, Mn, Zn va Pb)ning o‘zaro ijobiy korrelyatsiyasi, radial differensiatsiya koeffitsiyenti “past holatda” ekanligini isbotlanganligi, “ekologik jihatdan holati yaxshi” hududlar sifatida ilmiy asoslanganligi, tabiiy o‘simliklarni asrab-avaylash va madaniy o‘simliklarni joylashtirish hamda foydalanishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini amaliy ahamiyati shundan iboratki, bo‘z yerlar, sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z, bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlar uchun tuzilgan 1:10 000 masshtabli “Tuproq sho‘rlanganlik”, “Tuproqlarni zaharli tuzlar zahiralari bilan baholash” va “Agroekologik kartogramma”lari hamda ilmiy-amaliy tavsiyanoma mazkur tuproqlarning ekologik-meliorativ holatini yaxshilash, unumdorligini oshirish, tabiiy oʻsimliklarni asrab-avaylash, madaniy oʻsimliklarni joylashtirish va ulardan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilashda asos boʻlib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mirzachoʻl vohasidagi boʻz yerlar va sugʻoriladigan tuproqlarning ekologik-meliorativ holati va biogeokimyosi boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Mirzachoʻl vohasida tarqalgan boʻz yerlar va sugʻoriladigan oʻtloqi-boʻz, boʻz-oʻtloqi va oʻtloqi tuproqlarda siklik elementlardan – Fe, Ca, Na, K, Mo, Mn, Ba, Sr, Cr, Zn, Ni, Co, Mg, Al, B, P, Cu, Pb, As, W tarqoq elementlardan – Rb, Cs, Ga, Li larning miqdorlari, konsentratsiya klarki (KK), klark taqsimoti (Kt), radial differensiatsiya koeffitsiyenti (Kr) aniqlangan va ularning koʻrsatkichlari ekinlarni joylashtirishda Sirdaryo viloyati Qishloq xoʻjaligi boshqarmasida amaliyotga joriy etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligi Qishloq xoʻjaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2025-yil 16-apreldagi 05/06-04-175-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu hududda siklik va tarqoq elementlarning aniqlangan koʻrsatkichlari 0-2 metrlik tuproq-gruntlarni meliorativ, geokimyoviy, biogeokimyoviy baholash imkonini bergan va kelgusida olib boriladigan ilmiy-amaliy tadqiqotlar uchun fon miqdorlar sifatida xizmat qilgan;

Mirzachoʻl vohasida tarqalgan boʻz yerlar va sugʻoriladigan oʻtloqi-boʻz, boʻz-oʻtloqi va oʻtloqi tuproqlarning Mn, Zn, Ni, Co, Cu va Pb elementlari koʻrstakichlari asosida ekologik xavfililik darajasi baholangan va 1:10 000 masshtabli “Agroekologik kartogramma”lari tuzilgan hamda Sirdaryo viloyati Xovos tumani Hamza massividagi “Sirdaryo davlat oʻrmon xoʻjaligi”, “Asilbek-Xovos” fermer xoʻjaligi va Oq oltin tumani Bobur massividagi “Oqoltin Tomorqa Servis” MChJ va “Indorama Agro” MChJ Xklarga qarashli jami 230,37 gektar maydonda amaliyotga joriy etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligi Qishloq xoʻjaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2025-yil 16-apreldagi 05/06-04-175-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu yerdan foydalanuvchilarga qarashli yerlarning agroekologik holatlarini hisobga olgan holda tuproq unumdorligini yaxshilash, saqlash va oshirish, shuningdek, tabiiy va madaniy oʻsimliklarni joylashtirish va yerlardan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini bergan;

Sirdaryo viloyati Xovos tumani Xamza nomli massividagi “Sirdaryo davlat oʻrmon xoʻjaligi”, “Asilbek-Xovos” fermer xoʻjaligi va Oqoltin tumani Bobur nomli massivdagi “Oqoltin Tomorqa Servis” MChJ va “Indorama Agro” MChJ XKlar uchun 1:10 000 masshtabli “Tuproq shoʻrlanganligi kartogramma”lari va “Tuproqlarni zaharli tuzlar zahiralari bilan baholash kartogramma”lari 230,37 gektar maydonda amaliyotga joriy etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligi Qishloq xoʻjaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2025-yil 16-apreldagi 05/06-04-175-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu yerdan foydalanuvchilar qishloq xoʻjalik yerlari shoʻrlangan tuproqlarining mexanik tarkibi, shoʻrlanish darajasi va tipi hamda lokal xossa-xususiyatlariga koʻra ilmiy asoslangan shoʻr yuvish me’yorlari, soni va muddatlarini belgilash hamda 0-1 metrlik qatlamidagi zaharli tuzlar zaxiralari baholash va qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash imkonini bergan;

“Mirzacho‘l vohasi tuproqlarining unumdorligini yaxshilashga doir tavsiyalar” mavzusida tavsiyanoma Sirdaryo viloyati Qishloq xo‘jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2025-yil 16-apreldagi 05/06-04-175-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Mirzacho‘l vohasidagi qishloq xo‘jalik yerlaridan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish, tuproq unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirish hamda qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish uchun majmuaviy agrotexnik, agrokimyoviy, ekologik-meliorativ tadbirlarni amalga oshirishda ilmiy uslubiy qo‘llanma sifatida xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqotlar asosida olingan natijalar asosida 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruzalar qilingan hamda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish e’lon qilingan, shundan, 1 ta tavsiyanoma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan, 1 ta xorijiy jurnalda, 4 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 5 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya asosiy hajmi 120 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotni ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi to‘g‘risidagi hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiyani tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tuproqlar biogeokimyoviy tadqiqotlarining nazariy va metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobining ikkita bo‘limida mavzuga oid adabiyotlar tahlili keltirilgan bo‘lib, dunyo miqyosida ko‘plab tadqiqotchi olimlar tomonidan turli ilmiy yo‘nalishlarda tuproqlar va o‘simliklar biogeokimyoviy xususiyatlari va ularni o‘rganilishining nazariy va metodologik asoslari yildan-yilga takomillashib borayotganligi sharhlangan. Mirzacho‘l vohasidagi bo‘z yerlar va sug‘oriladigan tuproqlar ekologik-meliorativ holati va biogeokimyosi “tuproq-o‘simlik-ona jins” tizimida o‘rganilmaganligi e’tirof etilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot hududi yer fondi, geografik tavsifi, tadqiqot ob’yekti va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar o‘tkazilgan Mirzacho‘l vohasi (Sirdaryo viloyati) yer fondi, tuproqlari va tabiiy-geografik tavsifi, iqlimi qisqacha tavsiflanib, tabiiy sharoitlarning tuproq shakllanishi va degradatsiya jarayonlarini yuzaga keltiruvchi omilar to‘g‘risida hamda tadqiqotlar davomida qo‘llanilgan uslublar to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, Sirdaryo viloyati umumiy sug‘oriladigani maydonlari 287 131 gektar (100%)ni, shundan sug‘oriladigan ekin yerlar maydonlari 248 838 gektar (86,66%)ni, bo‘z yerlar esa 10 166 gektar (3,54%)ni tashkil etishi alohida ta’kidlangan[2].

**“Mirzacho‘l vohasi hududidagi bo‘z yerlar va sug‘oriladigan tuproqlarning morfogenetik xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobi 4 ta bo‘limdan iborat. *3.1-§. “Bo‘z yerlar va sug‘oriladigan tuproqlar morfologik belgilari”*. Mirzacho‘l vohasi hududida o‘rganilgan tuproqlar A + B genetik gorizotlarining qalinligi B.G.Rozanov [2004; 432 s.] tomonidan taklif qilingan gradatsiyaga asosan: “qalin emas” – profili < 50 sm dan kam va “o‘rtacha qalin” – profili 50-100 sm bo‘lgan guruhlarga mansubligi aniqlandi.

*3.2-§. “Agrofizikaviy xossalari”,* shundan, *3.2.1-§. “Granulometrik tarkibi”*ga ko‘ra, sug‘orishlar ta’sirida il zarrachasi (<0,001 mm) miqdori ma’lum bir qonuniyatga bo‘ysunib, bo‘z yerlarda – 0,1-2,6% ni, sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z tuproqlarda – 0,2-3,8% ni, sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarda – 3,3-10,9% ni, o‘tloqi tuproqlarda – 0,1-12,0% ni tashkil etib ortib bormoqda. Bunda bo‘z yerlarga nisbatan sug‘oriladigan tuproqlarda ichki nurash jarayoni vujudga kelgan.

*3.2.2-§. “Mikro- va makroagregatligi”.* Bo‘z yerlar $A_{hq}$-genetik qatlamida “qoniqarsiz” (<45% dan kam), sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z, bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlarda “qoniqarli” (45-60%), “yaxshi” (60-70%) va “juda yaxshi” (60-70%) agronomik jihatdan qimmatli bo‘lgan agregatlar shakllanganligi aniqlandi.

*3.2.3-§. “Zichligi, solishtirma og‘irligi va g‘ovakligi”*. Tuproq zichligiga ko‘ra, hududda yetishtiriladigan qishloq xo‘jalik ekinlari yaxshi rivojlanishi uchun “eng maqbul”, “maqbul” va “maqbul zichlik”dan yuqori bo‘lgan madaniylashgan tuproqlarga aylangan. Biroq sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar tarqalgan maydonlarda yerlarni surunkasiga bir xil chuqurlikda haydashlar natijasida “kuchli” zichlashgan (1,40-1,49 g/sm$^3$) “plug tovoni” qatlami shakllangan. Ushbu holat har 3-5 yilda chuqur haydashni talab etadi.

*3.3-§. “Agrokimyoviy xossalari”,* shundan, *3.3.1-§. “Gumus (chirindi) va oziqa moddalari”*: Gumus bilan ta’minlanganlik darajasiga ko‘ra, bo‘z yerlarda – 0,180-0,830%, sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z tuproqlarda – 0,220-1,050%, bo‘z-o‘tloqi tuproqlarda – 0,190-1,260% va o‘tloqi tuproqlarda – 0,300-1,360% ni tashkil etib, gidromorf tuproqlar tomon ortib borayotganligi aniqlandi. Buning isboti sifatida uglerodning azotga bo‘lgan nisbati mos ravishda 5,28-7,19; 5,28-8,79; 7,70-10,91; 10,98-15,17, pastki qatlamlarda 4,64-9,49 atrofida qayd qlinganligini keltirish o‘rinli. Demak, Mirzacho‘l vohasi hududidagi qishloq xo‘jaligi yerlarida uglerodning azotga bo‘lgan nisbati ko‘rsatkichlari avtomorf > yarimgidromorf > gidromorf tuproqlar tomon ortib borishi qonuniyati boysunishi va tuproqlar ekologik holatining yaxshilanayotganligidan dalolat beradi.

O‘rganilgan hududlar tuproqlari oziqa moddalari (NPK) bilan u yoki bu darajada ta’minlanganligi, birinchi navbatda, tabiiy va inson-xo‘jalik sharoitlari bilan bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

---

[2] O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to‘g‘risida Milliy Hisobot / Kadastr agentligi. - Toshkent, 2023. - 96 b..

*3.3.2-§. “Mikroelementlar (B, Cu, Zn, Mn) miqdori”.* Mazkur tuproqlari haydov va haydov osti qatlamlarida marganyesning harakatchan shakli tanqisligi holati (“yetarli emas” – <80 mg/kg) yaqqol kuzatiladi, bu esa, oʻz navbatida, ushbu hududda etishtirilayotgan qishloq xoʻjaligi ekinlari barglarining xloroz kasalligiga chalinishga moyilligi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Demak, bunday “kritik chegradan” chiqish uchun etishtirilayotgan qishloq xoʻjaligi ekinlariga zudlik bilan marganes birikmali mikrooʻgʻitlardan belgilangan tartibda solish tavsiya etiladi. Shuningdek, oʻrganilgan tuproqlar qatlamlarida bor elementining ulushi “chegaralangan” sonlardan (0,80-1,20 mg/kg) 1-3 barobargacha yuqori ekanligi bor elementli shoʻrlanish jarayoni vujudga kelganligini koʻrsatadi. Bunday maydonlarga bor elementli mikrooʻgʻitlarni 5-10 yil solish tavsiya etilmaydi.

*3.4-§. “Singdirish sigʻimi va singdirilgan kationlar tarkibi”*ga koʻra, boʻz yerlar → sugʻoriladigan oʻtloqi-boʻz tuproqlar → sugʻoriladigan boʻz-oʻtloqi tuproqlar → sugʻoriladigan oʻtloqi tuproqlar tomon otib borish qonuniyatiga boʻysunadi. Singdirish sigʻimi 5,88-12,06 mg-ekv. atrofida qayd qilinib, singdirish qobiliyati “juda past” (5-10 mg-ekv.) va “past” (10-15 mg-ekv.) guruhlarga mansub ekanligi aniqlandi. Oʻtloqi tuproqlar singdirish sigʻimining 11,79-12,06 mg-ekv. gacha ortganligini gumus miqdoriga bevosita bogʻliq deb izohlanadi.

**“Mirzachoʻl vohasidagi boʻz yerlar va sugʻoriladigan tuproqlar ekologik-meliorativ holati, tabiiy va madaniy oʻsimliklarining tavsifi”** deb nomlangan toʻrtinchi bobi 3 ta boʻlimdan iborat. Jumladan, *4.1-§. “Tuproqlar ekologik-meliorativ holati”*: Mirzachoʻl vohasi tuproqlarida tuzlarning kelib chiqishi, migratsiyasi va akkumulyatsiyasiga koʻra oʻziga xos xususiyatlar ekanligi aniqlandi.

Meliorativ-tuproqshunoslikda umumqabul qilingan uslubiyotlarga[3] koʻra:

***Boʻz yerlarda** (Xovos tumani Xamza nomli massiv hududida)* quruq qoldiq miqdori 1,228-13,421% oraligʻida kuzatilib, shundan, xlor ioni miqdori 0,035-5,075% ni tashkil etadi. Shoʻrlanganlik darajasiga koʻra, kuchli va juda kuchli darajada shoʻrlangan tuproqlar deb baholandi;

Xovos tumani Xamza nomli massivdagi ***sugʻoriladigan oʻtloqi-boʻz tuproqlar*** 0-2 metrlik qatlamidagi quruq qoldiq miqdori 0,996-1,495%, shundan xlor ioni miqdori 0,018-0,046% oraligʻida kuzatilib, oʻrtacha darajada shoʻrlangan;

Oqoltin tumani Bobur nomli massiv ***sugʻoriladigan boʻz-oʻtloqi tuproqlari*** 0-2 metrlik qatlamdagi quruq qoldiq miqdori 0,525-1,155%, shundan, xlor ioni miqdori 0,028-0,063% oraligʻida kuzatilib, kuchsiz darajada shoʻrlangan tuproqlar;

Oqoltin tumani Bobur nomli massiv ***sugʻoriladigan oʻtloqi tuproqlari*** 0-1 metrlik qatlamidagi suvda oson eruvchi tuzlar miqdori 0,450-2,046% ni, shundan xlor ioni miqdori 0,021-0,070% atrofida kuzatilib, kuchsiz va oʻrtacha darajada shoʻrlangan tuproqlar deb baholandi.

Oʻrganilgan barcha tuproqlar muhiti (pH) – kuchsiz ishqoriy (7,1-7,9).

Mazkur tuproqlarda asosan sulfatli shoʻrlanish ximizmi dominatlik qiladi.

Avtomorf sharoitda shakllangan boʻz yerlarda shoʻrlanish jarayoni turgʻin holatda qayd qilinib, tuproqning 0-1 (0-2) metrlik qatlamida 1,228-13,421%

[3] Руководство к проведению химических и агрофизических анализов почв при мониторинге земель / Под. ред. А.Ж.Баирова, М.М.Ташкузиева, и др. - Ташкент: «ГосНИИПА», 2004. - 260 с.

oralig‘ida tuzlarning to‘planganligi alohida biogeokimyoviy jarayonlarning muttasil davom etayotganligini ko‘rsatadi. Bunda, bo‘z yerlarda sug‘oriladigan tuproqlarga nisbatan 10 barobar miqdorda tuzlarning ko‘p to‘plangan. Ushbu holat tuproqlar kapillyar bo‘shliqlari orqali ko‘p yillar davomida transpiratsiya jarayonlari tufayli yuza 0-1 (0-2) metrlik qatlamda tuzlarning akkumulyatsiyalanish jarayoni vujudga kelganligi izohlanadi.

Amaliyotda umumqabul qilingan klassifikatsiyaga ko‘ra, o‘rganilgan tuproqlar 0-1 metrli qatlamida qayd etilgan **tuz zahiralari** bilan baholanganda, mos ravishda o‘rtacha zahirasi gektariga 469,91; 183,23; 102,77 va 137,90 tonnani tashkil etadi. Jumladan:

◄ bo‘z yerlar – “sho‘rxok” (>300 t/ga) tuproqlar guruhini tashkil etadi, miqdoriy ko‘rsatkichlariga ko‘ra tuz zahiralari “o‘ta yuqori” deb baholandi;

◄ sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z tuproqlar – “o‘rtacha sho‘rlangan” (150-200 t/ga) tuproqlar guruhini tashkil etadi, miqdoriy ko‘rsatkichlariga ko‘ra tuz zahiralari “baland” deb baholandi;

◄ sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlar – “o‘rtacha sho‘rlangan” (100-150 t/ga) tuproqlar guruhini tashkil etadi, miqdoriy ko‘rsatkichlariga ko‘ra tuz zahiralari “o‘rtacha” deb baholandi;

◄ sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar – “o‘rtacha sho‘rlangan” (100-150 t/ga) tuproqlar guruhini tashkil etadi, miqdoriy ko‘rsatkichlariga ko‘ra tuz zahiralari “o‘rtacha” deb baholandi.

M.I.Ro‘zmetov[4] [2003; 25-b.] tomonidan taklif etilgan “Tuproq sho‘rlanganlik darajasini zaharli tuzlar zahiralari bo‘yicha baholash shkalasi (klassifikatsiyasi)”ga ko‘ra, o‘rganilgan bo‘z yerlar, sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z, bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlar 0-1 metrli qatlamida qayd etilgan **zaharli tuz zahiralari** bilan baholaydigan bo‘lsak, mos ravishda o‘rtacha zahirasi gektariga 272,89; 149,69; 62,87 va 75,67 tonnani tashkil etadi. Jumladan:

► bo‘z yerlar – “sho‘rxok” (>150 t/ga) tuproqlar guruhini tashkil etadi, miqdoriy ko‘rsatkichlariga ko‘ra “juda yuqori” deb baholandi;

► sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z tuproqlar – “kuchli sho‘rlangan” (90-150 t/ga) tuproqlar guruhini tashkil etadi, miqdoriy ko‘rsatkichlariga ko‘ra “yuqori” deb baholandi;

► sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlar – “o‘rtacha sho‘rlangan” (42-90 t/ga) tuproqlar guruhini tashkil etadi, miqdoriy ko‘rsatkichlariga ko‘ra “o‘rtacha” deb baholandi;

► sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar – “o‘rtacha sho‘rlangan” (42-90 t/ga) tuproqlar guruhini tashkil etadi, miqdoriy ko‘rsatkichlariga ko‘ra “o‘rtacha” deb baholandi.

Biz tomondan Sirdaryo viloyati Xovos tumani Xamza nomli massivdagi “Asilbek-Xovos” fermer xo‘jaligining 36,5 gektar, “Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi”ning 34,17 gektar hamda Oqoltin tumani Bobur nomli massivdagi “Oqoltin

---

[4] Рузметов М.И. Изучение и оценка современного мелиоративного состояния орошаемых почв Хорезмской области и разработка мероприятий по их улучшению. Автореф. дисс. ... канд. биол. наук. - Ташкент, ГосНИИПА, 2003. - 25 с.

Tomorqa Servis” MChJning 40,5 gektar va “Indorama Agro” MChJ XKning 119,2 gektar maydonlari uchun 1:10 000 masshtabli “Tuproq sho‘rlanlanganlik” va “Tuproqdagi zaharli tuzlar zahiralari” kartogrammalari tuzildi va ishlab chiqarishda amaliyotga joriy qilindi.

Amaliyotda umumqabul qilingan gradatsiya-shkalaga ko‘ra, tuproqning ustki 0-1 m li qatlamida 100-150 t/ga tuz zahiralari bo‘lgan tuproqlar “o‘rtacha” va 150-200 t/ga tuz zahiralari bo‘lgan tuproqlar miqdoriy ko‘rsatkichlar bo‘yicha “baland” hisoblanadi. Sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z, bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlar “o‘rtacha sho‘rlangan” 100-200 t/ga tuproqlar guruhiga mansub bo‘lib, mazkur toifa yer maydonlarida sho‘rsizlantirish meliorativ tadbirlarini o‘tkazish, bunda tuz zahiralari miqdorlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan suv me’yorlarida sho‘r yuvish tadbirlarini sifatli o‘tkazish talab etiladi.

Tuproqlarning ustki 0-1 m li qatlamida 300 tonnadan ortiq tuz zahiralari bo‘lgan yer-maydonlari miqdoriy ko‘rsatkichi bo‘yicha tuz zahiralari “o‘ta yuqori” tuproqlar guruhiga mansub bo‘lgan bo‘z yerlar sug‘orma dehqonchilikda deyarli yaroqsiz (sho‘rxoklar) hisoblanadi. Bunday yerlarda galofit o‘simliklardan sho‘rga chidamli oqbosh *(Karelinia caspia (Pall.) Less.)*, Amudaryo tuyatovoni *(Zygophyllum oxianum Boriss)* va Pahmoq xardandon *(Halimocnemis villosa Kar. & Kir.)* urug‘larni ekish maqsadga muvofiq. Bu birinchidan, degradatsiyaga uchragan mazkur bo‘z yerlarda yashil qoplama hosil qiladi, ikkinchidan, turli chorva mollari uchun qo‘shimcha yem-xashak ozuqa manbai sifatida ham samarali foydalanish imkonini beradi.

*4.2-§. “Zaharli, zaharsiz tuzlarning sifat va komponent tarkibi”*ga ko‘ra Mirzacho‘l vohasi sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z tuproqlarda $Na_2SO_4$ tuzi, sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlarda esa $Na_2SO_4$ hamda $CaSO_4$ tuzlari dominantlik qiladi. Keyingi o‘rinlari barcha holatlarda almashinib keluvchi $CaSO_4$, $MgSO_4$, $Ca(HCO_3)_2$ va $MgCl_2$ tuzlari egallaydi. Bo‘z yerlar, sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z, sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi va sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarda mos ravishda $Na_2SO_4$ tuzining miqdoriy ko‘rsatkichlari mos ravishda 0,166-1,477, 0,470-1,162, 0,126-0,552 va 0,087-1,092% atrofida kuzatiladi.

O‘rganilgan tuproqlarda zaharli hisoblangan $CaCl_2$, $Mg(HCO_3)_2$ va $Na_2CO_3$ tuzlari qayd etilmadi.

*4.3-§. “Tabiiy o‘simliklar va qishloq xo‘jaligi ekinlarining qisqacha tavsifi”* deb nomlangan bo‘limida o‘ragnilgan hududlarda tarqalgan tabiiy o‘simliklardan oqbosh *(Karelinia caspia (Pall.) Less.)*, Amudaryo tuyatovoni *(Zygophyllum oxianum Boriss)*, Paxmoq xardondon *(Halimocnemis villosa Kar. & Kir.)*, julg‘un *(Tamarix)* hamda madaniy o‘simliklardan g‘o‘za *(Gossipium hirsutum L.)*, bug‘doy *(Triticum durum Desf.)* va qovun *(Melo bilobola L.)* ekinlari ustida olib borildi va obyekt sifatida tanlab olingan. Ushbu bo‘limda mazkur o‘simliklarning qisqacha tavsifi keltirilgan.

**“Mirzacho‘l vohasidagi bo‘z yerlar, sug‘oriladigan tuproqlar, o‘simliklarning geokimyoviy va biogeokimyoviy xususiyatlari”** deb nomlangan beshinchi bobi 4 ta bo‘limdan iborat.

*5.1-§. “Bo‘z yerlar va sug‘oriladigan tuproqlar elementlar geokimyosi”.* Mirzacho‘l vohasidagi avtomorf, yarimgidromorf va gidromorf sharoitda shakllangan tuproqlardagi KK va Kt lari A.P.Vinogradov [1962; 555-571-b.] tomonidan ishlangan tuproq va litosfera klarklariga taqqoslash asosida ishlab chiqildi.

O‘rganilgan tuproqlar KK tahliliga ko‘ra, tuproq haydalma qatlamida (0-30 sm) siklik elementlardan: **bo‘z yerlarda** – As, Mo, Ca, Pb, B, W va Ba **sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z tuproqlar**ning haydov qatlamida – As, Mo, B, Sr, Mg, Ba, Zn, Pb, P **sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarda** – As, Mo, Ca, Ba, Pb, B, W, Zn, Sr **sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarda** – As, B, Ca, Mo, Pb elementlari litosfera klarkiga nisbatan ko‘p (KK>1) **konsentratsiyalanayotganligi** aniqlandi.

Haydov (0-30 sm) qatlamlarda tadqiq etilgan siklik elementlar konsentratsiya klarki tartibi quyidagicha ko‘rinishga ega.

№8-kesma – **bo‘z yer,** 0-30 sm:

Siklik elementlar: $\frac{As}{20{,}59} > \frac{Mo}{3{,}07} > \frac{Ca}{2{,}02} > \frac{Pb}{1{,}34} > \frac{B}{1{,}33} > \frac{W}{1{,}32} > \frac{Ba}{1{,}26} > \frac{Sr}{0{,}96} > \frac{Zn}{0{,}96} >$
$\frac{P}{0{,}96} > \frac{Mg}{0{,}94} > \frac{Cu}{0{,}77} > \frac{Fe}{0{,}71} > \frac{Al}{0{,}71} > \frac{K}{0{,}70} > \frac{Cr}{0{,}69} > \frac{Ni}{0{,}66} > \frac{Mn}{0{,}59} > \frac{Co}{0{,}59} > \frac{Na}{0{,}38};$

№1-kesma – **sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z tuproq**, 0-35 sm:

Siklik elementlar: $\frac{As}{24{,}29} > \frac{Mo}{3{,}45} > \frac{Ca}{2{,}89} > \frac{B}{2{,}44} > \frac{Sr}{2{,}44} > \frac{Mg}{1{,}39} > \frac{Ba}{1{,}13} > \frac{Zn}{1{,}10} > \frac{Pb}{1{,}07} > \frac{P}{1{,}06} >$
$\frac{W}{0{,}96} > \frac{Cu}{0{,}95} > \frac{Cr}{0{,}90} > \frac{Al}{0{,}87} > \frac{Fe}{0{,}85} > \frac{K}{0{,}83} > \frac{Ni}{0{,}73} > \frac{Co}{0{,}70} > \frac{Mn}{0{,}66} > \frac{Na}{0{,}48};$

№9-kesma – **sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi,** 0-30 sm:

Siklik elementlar: $\frac{As}{21{,}76} > \frac{Mo}{3{,}00} > \frac{Ca}{2{,}07} > \frac{Ba}{1{,}32} > \frac{Pb}{1{,}29} > \frac{B}{1{,}26} > \frac{W}{1{,}10} > \frac{Zn}{1{,}01} > \frac{Sr}{1{,}01} >$
$\frac{Mg}{0{,}83} > \frac{Al}{0{,}82} > \frac{P}{0{,}82} > \frac{K}{0{,}79} > \frac{Cr}{0{,}78} > \frac{Cu}{0{,}77} > \frac{Fe}{0{,}76} > \frac{Co}{0{,}67} > \frac{Mn}{0{,}63} > \frac{Na}{0{,}42};$

№14-kesma – **sug‘oriladigan o‘tloqi,** 0-28 sm:

Siklik elementlar: $\frac{As}{17{,}24} > \frac{B}{3{,}02} > \frac{Ca}{2{,}13} > \frac{Mo}{2{,}09} > \frac{Pb}{1{,}01} > \frac{Ba}{0{,}98} > \frac{W}{0{,}91} > \frac{Zn}{0{,}86} > \frac{Sr}{0{,}76} > \frac{Mg}{0{,}73} >$
$\frac{Al}{0{,}73} > \frac{K}{0{,}64} > \frac{Fe}{0{,}63} > \frac{Cu}{0{,}63} > \frac{Cr}{0{,}61} > \frac{P}{0{,}56} > \frac{Ni}{0{,}56} > \frac{Co}{0{,}52} > \frac{Mn}{0{,}47} > \frac{Na}{0{,}38};$

*5.2-§. “Tabiiy va madaniy o‘simliklarda kimyoviy elementlarning biogeokimyoviy xususiyatlari”.* Olib borilgan tadqiqotlarda tabiiy o‘simliklar va qishloq xo‘jaligi ekinlaridagi organlaridagi siklik va tarqoq elementlar guruhlari tahliliga ko‘ra, tabiiy o‘simliklardan oqbosh, Amudaryo tuyatovoni, paxmoq xardondon va yulg‘un yer ustki qismida natriy (Na) elementi boshqa elementlarga nisbatan o‘rtacha 2,5-9,6 barobarga ko‘p ekanligini yaqqol seziladi.

Sug‘oriladigan tuproqlar sharoitida ham madaniy o‘simliklardan g‘o‘za (P – 2,879-10,173; Mo – 0,783-6,957; K – 1,750-4,375 mg/kg), qovun (P – 1,828-14,360; Sr – 0,221-4,070; K – 0,006-2,899; Mg – 0,167-2,434; Na – 0,183-1,058 mg/kg) va bug‘doy (P – 0,822-3,655; K – 0,120-1,395 mg/kg) ekinlarida fosforli, kaliyli, magniyli, natriyli va molibdenli biogeokimyoviy provinsiya hosil bo‘lganligi aniqlandi. Demak, o‘simlikning kimyoviy tarkibi, ularda sodir bo‘ladigan nafaqat biologik, fiziologik jarayonlariga, shuningdek, tuproq tiplariga, geokimyoviy bar’yerlar va biogeokimyoviy provinsiyalariga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

*5.3-§. "Tabiiy va madaniy o'simliklar biologik singdirish koeffitsiyenti".* Tadqiqotlarda o'rganilgan tuproqlarda o'ziga xos bo'lgan biogeokimyoviy jarayoni vujudga kelganligi aniqlandi. Masalan, bo'z yerlarda Oqbosh, Amudaryo tuyatovoni va yulg'un o'simliklarning biologik singdirish qatoriga ko'ra biologik to'planuvchi (Ax>1) "kuchsiz to'planayotgan" (1-5) guruhga, Pahmoq xardandon o'simlgining biologik singdirish qatoriga ko'ra "kuchli to'planayotgan" (5-10) guruhga mansubligini ko'rsatadi. Barcha holatlarda Na dominantlik qiladi. Shuningdek, ushbu tabiiy o'simliklar tomonidan P va Sr elementlarini ham to'plashi aniqlandi.

Sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlar sharoitida yetishtirilgan bug'doyda – P; bo'z-o'tloqi tuproqlar sharoitida yetishtirilgan qovunda – K, Sr va o'tloqi tuproqlar sharoitida yetishtirilgan g'o'zada – K, Mo, Sr lar qayd qilinib, biologik to'planuvchi (Ax>1) "kuchsiz to'planayotgan" (1-5) guruhga, shuningdek, bo'z-o'tloqi va o'tloqi tuproqlar sharoitida fosfor (P)ning "kuchli to'planayotgan" (5-10) guruhiga mansubligi aniqlandi. Fikrimizcha, ushbu holat bo'z yerlarga nisbatan bevosita sug'orma dehqonchilik bilan bog'liq deb izohlanadi.

***Bo'z yerlarda*** tabiiy o'simliklar turlarining biogeokimyoviy foalligi va uning ulushi: Yulg'unda 6,55 (0,30%) > oqboshda 9,67 (0,44%) > Amudaryo tuyatovonida 10,73 (0,49%) > pahmoq xardandonda 14,41 (0,66%), ya'ni o'rtacha 10,34 (0,47%)ga teng bo'ldi.

Madaniy o'simliklardagi biogeokimyoviy faolligi va uning ulushi:

